

FRAZEOLOGIK IBORALARNING O'RGANILISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Behzod Xudoyqulov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

bekhzod338@gmail.com

Ruziboyeva Dildora

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri frazeologizmlardir. Frazeologizmlar til birligi sifatida nutqda namoyon bo'ladi. Ular nutqning ta'sirchan va buyoqdor bo'lishini ta'minlaydi. Frazeologik birliklar ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Har bir tildagi frazeologizmlarni o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Ushbu maqolada frazeologik iboralarni o'rganilish holati bo'yicha ayrim mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Frazeologiya, frazeologik lug'atlar, frazeologizm, ibora, tarjima.*

НЕКОТОРЫЕ ДИСКУССИИ ОБ ИЗУЧЕНИИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ

Бехзод Худайкулов

Преподаватель Денауского института предпринимательства и педагогики.

bekhzod338@gmail.com

Рузибоева Дилдора

Магистр Денауского института предпринимательства и педагогики

АННОТАЦИЯ

Фраzeология – раздел лингвистики, изучающий устойчивые речевые обороты и выражения – frazeологические единицы. Фраzeологизмы – это особые выражения, устойчивые сочетания слов. Объясняя их значение, мы имеем в виду смысл всего словосочетания в целом, а не отдельных слов. Фраzeологизмы, являющиеся одними из наиболее важных и выразительных составных частей любого языка.

В данной статье анализируется изучение frazeологизмы. Теоретическая информация об frazeологизмы основана на примерах

Ключевые слова: Фразеология, фразеологические словари, фразеологизмы, фразема и фразеологизм, перевод.

SOME DISCUSSIONS ABOUT THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS

Bekhzod Khudaykulov

Teacher of Denau Institute of entrepreneurship and pedagogy
bekhzod338@gmail.com

Ruziboeva Dildora

Master of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

ABSTRACT

Phraseology is the branch of lexicology specializing in word-groups which are characterized by stability of structure and transferred meaning. In speech, a person uses various stable phrases, especially figurative expressions, in addition to individual words. Such expressions are an important and peculiar part of the richness of our language. Phraseological units are set expressions and their phraseological stability distinguishes them from free phrases and compound words.

The article focuses on the study of phraseological units. Theoretical data about phraseological units are discussed and analyzed with reasonable examples.

Keywords: *Phraseology, phraseological dictionaries, phraseme and phraseologism, phraseological unit, translation.*

KIRISH

Frazeologik birliklarni tilning uzviy ajralmas bo'lagi sifatida ko'rib chiqish frazeologiyaning umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini mukammal o'rganib chiqishni talab etadi. Frazeologik birliklarning semantik stilistik xususiyatlarini tahlil qilish, barchaga ma'lumki, juda ham keng qamrovli sohadir. Frazeologiya bo'yicha ilmiy tadqiqod ishlari rivojiga ko'plab tilshunoslar o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan.

Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi bo'lib shakllanganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, frazeologik birliklar til bilan birga paydo bo'lib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ammo jamiyatning turli davrlarida ularning o'rni va ahamiyati turlicha baholanadi.

Frazeologiya tilshunoslikda mustaqil fan sifatida yaqinda paydo bo'lgan. Bilamizki, uning shakllanishi taniqli tilshunoslar nomi bilan uzviy bog'liqdir. Shuni

aytish joizki, frazeologiya sohasidagi dolzarb muammolarni yoritishda V.V.Vinogradov, N.N.Amosova, A.V.Kunin o'zlarining bebaho hissalarini qo'shgan va shu sababli yangi izlanishlarga keng yo'l ochib berishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, o'zbek frazeologiyasi yuzasidan Sh.Rahmatullaev, A.Isaev, K.Bozorboev, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev, U.Rashidova, Sh.G'anieva, Sh.Almamatova, B.Boltaeva¹ kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan bo'lib, ular frazeologizmning ma'lum bir qirralarini yoritishga xizmat qilishgan.

Har bir tilda bo'lgani kabi italyan tilida ham frazeologik iboralar muhim tadqiqot mavzusi bo'lib, shu paytgacha ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Boshqa chet tillari kabi italyan tili ham iboralarga boy til hisoblanadi.

Italyan tilidagi frazeologizmlar – iboralar ustida ishlab tadqiqod olib borganlardan: Lapucci C²., Radicchi S., Quartu B. M³., Turrini G., Alberti C., Santullo M.L⁴., Zanchi G., Zanichelli, Casadei F., Lurati O., Gianluca Aprile⁵, Pittano G⁶., kabilarning ishlari frazeologizmlarni tadqiq qilishda muhim hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Italyan tilidagi frazeologizmlar bo'yicha tadqiqidlar olib borgan tilshunoslardan: F. Leka, Z. Simoni, B. M. Quartu kabilar ikki tilli frazeologik lug'atlar ishlab chiqishgan⁷. Bundan tashqari italyan tilidagi frazeologizmlar – iboralar ustida ishlab lug'at ishlab chiqqanlardan: Lapucci C., (Modi di dire della lingua italiana) – “Italyan tilidagi iboralar” lug'ati, Radicchi S., (In Italia. Modi di dire ed espressioni idiomatiche) – Idioma va iboralar lug'ati; Quartu B. M., (Dizionario dei modi di dire della lingua italiana) – Italyan tilidagi iboralarning lug'ati; Turrini G., Alberti C., Santullo M.L., Zanchi G., Zanichelli, (Capire l'antifona. Dizionario dei modi di dire con esempi d'autore, (a cura di)) – Muallif misollari bilan berilgan iboralar lug'ati; Casadei F., (Appendice: il corpus, in Metafore ed espressioni idiomatiche) qo'llanmasi; Lurati O., (Dizionario dei modi di dire) – Iboralar lug'ati. Gianluca Aprile.,(Italiano per modo di dire) – Italyan tili – iboralar bo'yicha qo'llanmasi;

¹ Boltaeva B. I. O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi. Fil.fan disser avtoreferati. Samarqand, 2019.

² Lapucci C., 1990, Dizionario dei modi di dire della lingua italiana, 1st ed., Milano. (L)

³ Quartu B. M., 2000, Dizionario dei modi di dire della lingua italiana, 4th ed., Milano. (Q)

⁴ Turrini G., Alberti C., Santullo M. L., Zanchi G., Capire l'antifona. Dizionario dei modi di dire con esempi d'autore, 2002, 6th ed., Bologna. (C)

⁵ Gianluca Aprile .Italiano per modo di dire//Alma Edizione 2008.

⁶ Pittano G., 2001, `Frases fatte capo ha. Dizionario dei modi di dire, proverbi e Locuzioni, 5th ed., Bologna. (F)

⁷ Msc. Manjola Zaçellari , Msc. Muhamed Dervishi. The Relations of Albanian and Italian Language in Phraseology//Journal of Educational and Social Research MCSER Publishing, Rome-Italy. Vol. 3 No. 7 October 2013. 498 p.

Xususan, tana a'zolari nomlari bilan ishlatiladigan ayrim (somatik) iboralar, Gianluca Aprilening (Italiano per modo di dire) – Italyan tili iboralar bo'yicha deb nomlangan qo'llanmasida turli misollar va mashqlar orqali keltirilgan. Quyidagi misollar orasida ushbu qo'llanmadagi ayrim iboralarni uchratishimiz mumkin:

• **Prenderci la mano** - *O'rganib olmoq, qo'li kelishib qolmoq*⁸.

• **Fatto a mano** – *Qo'lda yasalgan, yasama*

• **Ci si lavano le mani** – *Ma'suliyatsiz bo'lmoq - biror ma'suliyat olmaydigan kishiga nisbatan.*

• **Avere le mani sporche** – *Aybdorlikni ifodalaydi. (so'zma-so'z tarjimada - kir qo'llari bo'lmoq).*

• **Lavarsene le mani**⁹ – *Ma'suliyatdan bosh tortish*

• **Mettere la mano sul fuoco**¹⁰ - *Kafolat bermoq, aniqligini tasdiqlamoq.*

• **Mani pulite** – *To'g'ri, xatoga yo'l qo'ymagan*

• **Stringere la mano** – *Yaxshi, muvaffaqiyatli kelishuvlar bo'lganda ishlatiladigan ibora.*

• **Avere le mani lunghe** - *Qo'li uzun bo'lmoq, yetarli qudrati bo'lmoq.*

• **Mettersi le mani nei capelli** (si fa così quando si è disperati) – *Umidsiz qolmoq ma'nosida.*

• **Un pugno di mosche in mano** – *Hech narsaga erishmasdan, hech narsasiz qolmoq.*

• **Essere un tipo o una persona alla mano** - *do'stona, ko'ngli ochiq va har qanday vaziyatga kirishib keta oladigan odamga nisbatan ishlatiladi*¹¹.

• **Essere a portata di mano** - bu ibora biror joyni juda yaqinda joylashganini ifodalashda ishlatiladi. Ma'nosi: *Juda yaqin, bir qadamda.* Iboraning aksi - **fuori mano**; Ma'nolari: Uzoqda/ uzoqda joylashgan

• **Mani in pasta** – Bu iboraning ma'nosi, qo'lida ishi bor/ishi tayin

• Qo'l bilan ishlatiladigan iboralrning aksariyati doimo biror ichga hozirlik, sahiylik ma'nolarida ishlatiladi.

• **Dare una mano** – *yordam qo'lini cho'zmoq/yordam bermoq*¹².

⁸ T.Oltiev, B.Xudoyqulov. "Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – SamDCHTI 2021.

⁹ Gianluca Aprile .Italiano per modo di dire//Alma Edizione 2008. 23 b.

¹⁰ Gianluca Aprile .Italiano per modo di dire//Alma Edizione 2008. 23 b.

¹¹ T.Oltiev, B.Xudoyqulov. "Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – SamDCHTI 2021.

¹² B.Xudoyqulov- Linguacultural Features of Phraseological Units in Italian Language - "Commonwealth Journal of Academic Research (CJAR.EU)" volume 3. Issue 1. 2022. 5 b.

• **Alzare le mani** - qo'l ko'tarmoq/urmoq. Leki bu iborani – savolga javob berish uchun qo'l ko'tarmoq ma'nosi ham mavjud.

• **Mani in alto!** - Qimirlama!, Buyruq ma'nosini bildiradi

• **Ha le mani bucate** – Qo'li ochiq, sahiy;

• **In buone mani** – Ishonchli qo'llarda, himoyada bo'lmoq; Masalan: Fidati di me, sei **in buone mani** – Menga ishon, sen ishonchli qo'llardasan.

• **Mettersi una mano sulla coscienza** - Aql bilan/rahm – shavqat bilan munosabatda bo'lmoq/yordam bermoq.

• **Mette le mani avanti**¹³ – *Oldini ol, himoyalani* – Biror salbiy holatni, hafagarchilikni oldini olishda ishlatiladi.

• **A mano a mano** - Bu iboraning ma'nosi – *sekin-sekin, bosqichma-bosqich*.

• **Capitare tra le mani** -(Biror imkoniyat) *qo'lida bo'lmoq, ko'zlagan imkoniyati qo'lida bo'lmoq*.

• **Una notizia di prima mano** – *Birinchi marta aytilgan (hali tarqalmagan) yangilik* ga nisbatan ishlatiladi.

• **Di seconda mano** - *Ishlatilgan, qo'ldan – qo'lga o'tgan narsa buyum (avtomobil)* ga nisbatan ham ishlatiladi.

• **Mordersi le mani** – O'tkazib yuborilgan imkoniyat, vaziyatda - *g'azablanish, g'azabdan qo'lini tishlash* ma'nolarida keladi.

• **Chiedere la mano** - *Qo'lini so'ramoq (qiz boladan turmushga chiqishini so'ramoq)* ma'nosida ishlatiladi.

• **Prendere per mano** – *Yordam bermoq, to'g'ri yo'lni korsatmoq*¹⁴.

Gianluca Aprilening (Italiano per modo di dire) – Italian tili iboralar bo'yicha deb nomlangan qo'llanmasida ayrim son komponentli iboralar ham keltirib o'tilgan. Quyidagi misollar orasida ushbu qo'llanmadagi ayrim son komponentli iboralarni uchratishimiz mumkin:

Dare i numeri:

• **So'zma-so'z tarjimada:** Sonlar/raqamlarni bermoq – tarzida bo'ladi. Iboralar sifatida – *O'zini ahmoqdek tutmoq, ma'nosiz narsalarni aytmoq* degan ma'nolarni ifodalaydi¹⁵.

Avere i numeri:

¹³ Gianluca Aprile .Italiano per modo di dire//Alma Edizione 2008. 23 b.

¹⁴ T.Oltiev, B.Xudoyqulov. "Italian tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – SamDCHTI 2021.

¹⁵ B.Xudoyqulov. "Son komponentli iboralarning semantik tahliliga doir (italyan va o'zbek tillari misolida)"Scientific Bulletin of NamSU - Научный вестник - NamDU Ilmiy Axborotnomasi - 2022_1-son. 241 b.

•So'zma-so'z tarjimada: Sonlar/raqamlarga ega bo'lmoq – tarzida bo'ladi. Iboralar sifatida – *Qobiliyatli bo'lmoq, layoqatli bo'lmoq* aytmoq degan ma'nolarni ifodalaydi.

•**Partire da zero:**

•So'zma-so'z tarjimada: Noldan jo'namoq – tarzida bo'ladi. Iboralar sifatida – *Hech kimni yordamisiz, boshidan/noldan boshlamoq* degan ma'nolarni ifodalaydi.

•**Tenere il piede in due scarpe – tenere due piedi in una scarpa** - - So'zma-so'z tarjimada: Ikki oyog'ini bir etikka solmoq – tarzida bo'ladi. Iboralar sifatida – Ikki xil imkoniyatni tanlashda, *bir qarorga kela olmay, noaniq harakatlanishda ishlatiladi.* degan ma'noni ifodalaydi¹⁶.

•**Fatto trenta, facciamo trentuno** – Biror ishni nihoyasiga yetkazish uchun yana bir ozgina turtki berish¹⁷.

•**Fare un quarantotto**¹⁸ – Tartibsizlik, chalkashlik tug'dirmoq/ hosil qilmoq.

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi.

XULOSA

Frazeologizmlar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi.

Frazeologik iboralarni turli tomondan o'rganish va unga har tomonlama yondashish, uning xususiyatlarini ochish, umumlashtirish yangidan-yangi iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Boltaeva B. I. O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi. Fil.fan disser avtoreferati. Samarqand, 2019.
2. Lapucci C., 1990, Dizionario dei modi di dire della lingua italiana, 1st ed., Milano.
3. Quartu B. M., 2000, Dizionario dei modi di dire della lingua italiana, 4th ed., Milano.

¹⁶ B.Xudoyqulov. "Son komponentli iboralarning semantik tahliliga doir (italyan va o'zbek tillari misolida)"Scientific Bulletin of NamSU - Научный вестник - NamDU Ilmiy Axborotnomasi - 2022_1-son. 241 b.

¹⁷ B.Xudoyqulov. "Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences", 1(11), 2021. 949 b.

¹⁸ Gianluca Aprile .Italiano per modo di dire//Alma Edizione 2008. 23 b.

4. Turrini G., Alberti C., Santullo M. L., Zanchi G., Capire l'antifona. Dizionario dei modi di dire con esempi d'autore, 2002, 6th ed., Bologna.
5. Gianluca Aprile .Italiano per modo di dire//Alma Edizione 2008.
6. Pittano G., 2001, ` Frase fatta capo ha. Dizionario dei modi di dire, proverbi e Locuzioni, 5th ed., Bologna.
7. Msc. Manjola Zaçellari , Msc. Muhamed Dervishi. The Relations of Albanian and Italian Language in Phraseology//Journal of Educational and Social Research MCSER Publishing, Rome-Italy. Vol. 3 No. 7 October 2013. 498 p.
8. Oltiev. T., Xudoyqulov. B. "Italyan tilidagi iboralarning tarjimasini" lug'ati. – SamDCHTI 2021.
9. Khudaykulov, B. (2022). Linguacultural Features of Phraseological Units in Italian Language.
10. Xudoyqulov. B. "Son komponentli iboralarning semantik tahliliga doir (italyan va o'zbek tillari misolida)"Scientife Bullettin of NamSU - Научный вестник - NamDU Ilmiy Axborotnomasi - 2022_1-сон. 241 b.
11. Xudoyqulov, B. (2021). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (italyan tilidagi iboralar misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 945-951.